



TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G'oyalar



SUN'IY INTELLEKT

Ochilova Shohida

Guliston Davlat Universiteti Biologiya yo'nalishi 2-bosqich talabasi
shohidaochilova224@gmail.com

Annotatsiya: Sun'iy intellekt - tezkor hisoblash muhitida algoritmlar yaratish va qo'llash orqali insonning aql-idrok jarayonlariga taqlid qilishga asoslanadi. Mazkur maqola Sun'iy intellekt nima, bugungi kunda foydalanilayotgan turlari, O'zbekistonda sun'iy intellekt texnologiyalarining rivojlanish holati qanday, suni'iy intellekt xavfli yoki foydali kabi masalalarni tahlil qiladi.

Kalit so'zlar: Sun'iy intellekt, Sun'iy ong, ChatGPT, Gemini, Midjourney.

Sun'iy intellekt - bu axborot texnoologiyalari va kompyuter fanlarining bir sohasi bo'lib, u inson aqli talab etiladigan vazifalarni bajara oladigan tizimlarni yaratishga qaratilgan. Bu vazifalar odam nutqini tanish va tahlil eta olish, masalalarni yechish, o'rganish, idrok etish va hatto qaror qabul qilish kabi ko'plab vazifalarni o'z ichiga oladi. Zamонави Sun'iy intellekt tizimlari mashinaviy o'rganish (Machine Learning) va katta hajmdagi ma'lumotlarga o'rnatilgan chuqur o'rganish (Deep Learning) algoritmlari asosida ishlaydi.

Sun'iy ong (SO), shuningdek, raqamli ong deb ham ataladi, bu mashina yoki dasturning ongga ega bo'lish faraziy qobiliyatini, ya'ni uning mavjudligini anglash, o'z-o'zini anglash, sub'ektiv tajriba va idrokni anglatadi. Agar sun'iy intellekt algoritmlar va ma'lumotlarga asoslangan bo'lsa, Sun'iy ong yuqori sifatli ichki tajriba, sub'ektiv idrok va aks ettirish qobiliyatining mavjudligini nazarda tutadi. Sun'iy intellektning maqsad va vazifalari uni yaratuvchilar tomonidan belgilanadi. Sun'iy ong esa, agar u yaratilsa, dasturlashtirilganidan farq qiladigan ichki maqsadlar va motivlarga ega bo'lishi mumkin. Sun'iy ong vazifalarni avtomatik va mexanik tartibda bajarmaydi. Ehtimol u vazifani boshqacharoq bajarish kerakligini, yoki bajarish shart emasligini tavsiya qilishi yoki umuman hozir bu vazifani bajarishni istamasligini bildirishi mumkin.

Sun'iy intellektning quyidagi turlari mavjud:

ChatGPT - Open AI tomonidan yaratilgan yuqori qobiliyatli, foydalanuvchi so'rovlariiga javob berish uchun katta hajmdagi ma'lumotlarni qayta ishlash va tahlil qilishga mo'ljallangan sun'iy intellekt dasturi. ChatGPT inson tilini og'zaki va yozma ravishda tushuna oladi. ChatGPT matnlar bilan ishlaydi ya'ni unga kirtiladigan so'rovlarni matn shaklda qabul qiladi va javob qaytaradi.

Gemini - ilgari Bard nomi bilan tanilgan Gemini Google kompaniyasi tomonidan chiqarilgan sun'iy intellekt hisoblanadi. U Gemini 1.0 da ishlaydi, Google kompaniyasining yirik tilli model texnologiyasidagi so'nggi ishlanmasi. Ushbu vositani ajratib turadigan narsa shundaki, barcha foydalanuvchilar Geminidan real vaqtida internet va qidiruv





TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OVALAR



ulanishidan, shuningdek, Xaritalar va YouTube kabi mashhur Google vositalari uchun asosiy kengaytmalardan foydalanishlari mumkin.

Midjourney - matnli ko'rsatmalarini tasvirga aylantira oladigan sun'iy intellekt turlaridan biridir. Midjourney yordamida siz oddiy matnga asoslangan ta'riflardan yuqori sifatlari tasvirlar yaratishingiz mumkin. Midjourneydan foydalanish uchun sizga hech qanday maxsus apparat yoki dasturiy ta'minot kerak emas, chunki u butunlay Discord chat ilovasi orqali ishlaydi.

O'zbekiston prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2021 yil fevral oyida sun'iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirish uchun sharoitlar yaratishga doir qaror qabul qilgan. Bu birinchi bo'lib ta'limdi namoyon bo'ldi: 4 ta nufuzli oliy ta'lim muassasalarida sun'iy intellekt sohasida yangi fakultet tashkil etildi. Bu universitetlar: Toshkent axborot texnologiyalari universiteti, O'zbekiston Milliy universiteti, Samarqand davlat universiteti, Texnika universitetlari. 15 ta universitetlarda amaliy fan sifatida kiritildi. Shuningdek, Raqamli texnologiyalar vazirligi qoshida Sun'iy intellekt texnologiyalari ilmiy tadqiqot instituti tashkil qilindi. Raqamli texnologiyalar vazirligi huzuridagi davlat axborot tizimlarini ishlab chiqarish va qo'llab-quvvatlash yagona integratori – UZINFOCOM. Ushbu tashkilot yordamida "Muxlisa" ovozli tizimi va "MyID" ishlab chiqildi. MyID tizimidan 70 dan ortiq idora va tashkilotlarning 10 milliondan ortiq foydalanuvchilari bor. "Muxlisa" ovozli yordamchisidan O'zbekistonda ishlab chiqarilayotgan BYD avtomobillarda foydalanish bo'yicha kelishuv imzolangan.

Sun'iy intellekt odamlardan ishini tortib olmaydimi?

Rostdan ham bu savol hozir juda dolzarb. Sun'iy intellektning o'zi odamlarning ishini olib qo'ymaydi. Lekin sun'iy intellektdan unumli foydalana oladigan boshqa odamlar tortib olishi mumkin. Sun'iy intellektning aynan o'zidan qo'rqish kerak emas, balki uni yaxshilab o'rganish kerak. Tabiiyki salbiy tomonlar hamma narsada bor. Deylik, oddiy pichoqdan oshxona anjomi sifatida foydalanish mumkin, quroq sifatida ham foydalanish mumkin. Sun'iy intellekt ham nima maqsadda, kimning qo'lida ishlatilishiga qarab foydali yoki zararli bo'lishi mumkin. Masalan, 2022 yil oxirlari, 2023 yil boshlarida ko'pgina feyk suratlar tarqaldi, bu orqali feyk xabarlar ham chiqdi. Bir tomonidan yaxshi keys bo'ldi bular, chunki faktcheking qilish kerakligi, tekshirish lozimligi o'rtaga chiqdi.

O'zbekistonda sun'iy intellekt sohasini rivojlantirishda avvalambor sun'iy intellekt vositalaridan qanday va qay maqsadda foydalanishni o'rgatish lozimdir.





TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



Foydalanilgan manbaalar:

1. <https://uz.goodinternet.org/uz/sections/osmirlar/qiziqarli-faktlar/suniy-intellekt-nima/>
2. <https://najottalim.uz/blog/suniy-intellekt-turlari-va-ulardan-foydalanish?srsltid=AfmBOoq2YnUWwt0MH-oGNv7rZEtPBEMqdNU0uj5AzVXmkP9TrU-Ea7nz>
3. <https://kun.uz/news/2024/08/22/dunyoni-ozgartirayotgan-suniy-intellekt-ozbekistonning-rejalari-qanday>
4. <https://kun.uz/news/2024/01/09/suniy-intellekt-qanchalik-xavfli-yoki-foydali>

